

I. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yil 1-yanvar holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (*fermer va dehqon xo'jaliklarisiz*) 23 595 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 22 711 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 96,3 foizni tashkil qildi.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Navoiy shahrida (23,3 foiz), Qiziltepa (13,0 foiz), Karmana (15,7 foiz) va Xatirchi (12,0 foiz) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Ro'yxatga olingan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi (2022-yil 1-yanvar holatiga)

	<i>Ro'yxatga olingan</i>		<i>Faoliyat ko'rsatayotgan</i>	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>
Jami	23 595	100,0	22 711	100,0
Navoiy sh.	5 498	23,3	5 187	22,8
Zarafshon sh.	1 716	7,3	1 660	7,3
G'ozg'on sh.	275	1,2	271	1,2
Konimex t.	945	4,0	905	4,0
Qiziltepa t.	3 066	13,0	2 980	13,1
Navbahor t.	2 444	10,4	2 334	10,3
Karmana t.	3 715	15,7	3 586	15,8
Nurota t.	1 586	6,7	1 542	6,8
Tomdi t.	593	2,5	552	2,4
Uchquduq t.	909	3,9	896	3,9
Xatirchi t.	2 848	12,0	2 798	12,4

Ro'yxatdan o'tgan sub'ektlarning hududlar bo'yicha ulushi, (% da)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning (34,6 foiz), sanoat (16,1 foiz), qurilish (7,4 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (11,4 foiz) sohalariga to'g'ri keldi.



Ro'yxatga olingan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (2022-yil 1-yanvar holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan, % da	birlik	jamiga nisbatan, % da
Jami	23 595	100,0	22 711	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 689	11,4	2 606	11,5
sanoat	3 795	16,1	3 641	16,0
qurilish	1 746	7,4	1 685	7,4
savdo	8 161	34,6	7 875	34,7
tashish va saqlash	743	3,1	713	3,1
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 451	6,1	1 400	6,2
axborot va aloqa	260	1,1	246	1,1
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	336	1,4	330	1,4
boshqa turlari	4 414	18,8	4 215	18,6

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**
(2022-yil 1-yanvar holatiga)



11,5 %

**Qishloq, o'rmon va
baliqchilik xo'jaligi**

16,0 %



Sanoat

7,4 %



Qurilish

34,7 %



Savdo

3,1 %



Tashish va saqlash

6,2 %



**Yashash va ovqatlanish
bo'yicha xizmatlar**

1,1 %



Axborot va aloqa

1,4 %



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy
xizmatlar ko'rsatish**


18,6 %



Boshqa turlar


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotgan sub'ektlarning ulushi 96,3 foizni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 3,7 foizni tashkil etganligini ko'rsatmoqda.

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




2022-yil 1-yanvar holatiga 20 558 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5 487 ta, oilaviy korxonalar – 4 010 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 10 826 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 20 ta, unitar korxonalar – 40 tani va 175 tani boshqa tijorat korxonalarini tashkil etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy- huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2021-yil yanvar-dekabr oylarida jami 4 993 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan bo'lib, 2020-yilning shu davriga nisbatan 114,7 foizga oshgan, yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Navoiy shahri (920 ta), Karmana (646 ta), Navbahor (515 ta), Xatirchi (654 ta) tumanlariga to'g'ri keladi. Eng kam esa Tomdi (206 ta) tumani va G'ozg'on shahar (149 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi savdoda 36,8 foiz, sanoatda 21,7 foiz, qurilishda 5,4 foiz va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 12,1 foizni tashkil etdi.

2022-yil 1-yanvar holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni 20 472 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14,2 foizga oshdi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy qismi, ya'ni 4 582 tasi (jami sub'ektlarning 22,4 foizi) Navoiy shahri, 3 326 tasi (16,2 foizi) Karmana, 2 749 tasi (13,4 foizi) Qiziltepa, 2 504 tasi (12,3 foizi) Xatirchi hamda 2 151 tasi (10,5 foizi) Navbahor tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Eng kam faoliyat ko'rsatayotganlar esa 478 tasi (2,3 foizi) Tomdi, 775 tasi (3,8 foizi) Konimex, 787 tasi (3,8 foizi) Uchquduq tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Ro'yxatdan o'tgan kichik biznes sub'ektlari
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)
(2022-yil 1-yanvar holatiga)

	<i>Jami</i>	<i>Faoliyat yuritayotgan</i>	<i>Faoliyat yuritmayotgan</i>	<i>2021-yil yanvar-dekabr oylarida yangidan tashkil etilgan</i>	<i>2021-yil yanvar-dekabr oylarida faoliyati tugatilgan</i>	<i>1000 kishiga to'g'ri keladiga KB sub'ektlari</i>
Jami	21 260	20 472	788	4 835	2 628	23,0
Navoiy sh.	4 849	4 582	267	848	519	30,4
Zarafshon sh.	1 562	1 513	49	411	345	17,7
G'ozg'on sh.	243	240	3	140	4	27,4
Karmana t.	3 450	3 326	124	628	266	27,8
Konimex t.	812	775	37	226	98	26,5
Qiziltepa t.	2 826	2 749	77	568	200	21,3
Navbahor t.	2 254	2 151	103	507	128	23,0
Nurota t.	1 407	1 367	40	230	107	20,1
Tomdi t.	513	478	35	198	38	50,3
Uchquduq t.	796	787	9	436	477	23,5
Xatirchi t.	2 548	2 504	44	643	446	16,0


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining hududlar bo'yicha soni

	<i>2021- yil 1- yanvar holatiga</i>		<i>2022- yil 1- yanvar holatiga</i>	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>
Jami	17 931	100,0	20 472	100,0
Navoiy sh.	4 061	22,6	4 582	22,4
Zarafshon sh.	1 277	7,1	1 513	7,4
G'ozg'on sh.	-	-	240	1,2
Konimex t.	660	3,7	775	3,8

	2021- yil 1- yanvar holatiga		2022- yil 1- yanvar holatiga	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>
Qiziltepa t.	2 411	13,4	2 749	13,4
Navbahor t.	1 822	10,2	2 151	10,5
Karmana t.	2 968	16,6	3 326	16,2
Nurota t.	1 340	7,5	1 367	6,7
Tomdi t.	342	1,9	478	2,3
Uchquduq t.	824	4,6	787	3,8
Xatirchi t.	2 226	12,4	2 504	12,3

Faoliyat ko'rsatayotgan jami 20 472 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlarining 7 861 tasi (38,4 foizi) – savdoda, 3 612 tasi (17,6 foizi) - sanoatda, 2 570 tasi (12,6 foizi) - qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 1 675 tasi (8,2 foizi) - qurilishda, 1 394 tasi (6,8 foizi) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 705 tasi (3,4 foizi) - tashish va saqlashda, 261 tasi (1,3 foizi) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 240 tasi (1,2 foizi) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 2 154 tasi (10,5 foizi) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keldi.

**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 1-yanvar holatiga ko'ra) birlikda**




2022-yil 1-yanvar holatiga Navoiy shahrida jami ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining umumiy sonida faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 5,5 foizni (267 ta), Navbahor tumanida esa ro'yxatdan o'tganlarning jami sonida 4,6 foizni (103 ta), Karmana 3,6 foizni (124 ta), Uchquduq 1,1 foizni (9 ta), Konimex 4,6 foizni (37 ta), va Tomdi tumani 6,8 foizni (35 ta) tashkil qilgan.

Hisobot davrida 2 628 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyati tugatilgan bo'lib, ulardan sanoat 577 ta (22,0 foizi), savdo 957 ta (36,4 foizi), qurilish 172 ta (6,5 foizi) hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 235 ta (8,9 foizi) sohalariga to'g'ri keladi.

2022-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorij kapital ishtirokidagi korxonalar soni 237 tani tashkil etdi. Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 149 tasi qo'shma korxonalar, 88 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2022-yil 1-yanvar holatiga)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Jami	237	149	88
Navoiy sh.	73	52	21
Zarafshon sh.	17	10	7
G'ozg'on sh.	2	1	1
Konimex t.	8	5	3
Qiziltepa t.	14	8	6
Navbahor t.	10	8	2

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>Qo'shma korxonona</i>	<i>Xorijiy korxonona</i>
Karmana t.	67	39	28
Nurota t.	21	14	7
Tomdi t.	7	6	1
Uchquduq t.	8	1	7
Xatirchi t.	10	5	5

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Navoiy shahri 73 ta (30,8 foiz) va Karmana 67 ta (28,3 foiz) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar G'ozg'on shahrida 2 ta (0,8 foiz), Tomdi tumanida 7 ta (3,0 foiz), Uchquduq, Konimex tumanlarida 8 tadan (3,4 foiz), Xatirchi, Uchquduq 8 tadan (3,4 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar bo'yicha soni va ulushi
(2022-yil 1-yanvar holatiga)

	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>
Jami	237	100,0
Navoiy sh.	73	30,8
Zarafshon sh.	17	7,2
G'ozg'on sh.	2	0,8
Konimex t.	8	3,4
Qiziltepa t.	14	5,9
Navbahor t.	10	4,2
Karmana t.	67	28,3
Nurota t.	21	8,8
Tomdi t.	7	3,0
Uchquduq t.	8	3,4
Xatirchi t.	10	4,2

Faoliyat ko'rsatayotgan 237 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 139 tasi (58,6 foiz) sanoat, 27 tasi (11,4 foiz) savdo, 28 tasi (11,8 foiz) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 4 tasi (1,7 foiz) tashish va saqlash, 14 tasi (5,9 foiz) qurilishda, 4 tasi (1,7 foiz) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 1 tasi (0,4 foiz) axborot va aloqa, 2 tasi (0,8 foiz) sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 18 tasi (7,7 foiz) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi**
(2022-yil 1-yanvar holatiga)

	<i>birlik</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>
Jami	237	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
Sanoat	139	58,6
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	28	11,8
qurilish	14	5,9
savdo	27	11,4
tashish va saqlash	4	1,7
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4	1,7
Axborot va aloqa	1	0,4
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2	0,8
boshqa turlari	18	7,7

2021-yil yanvar-dekabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 20 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17 taga kamaygan.

Bunda Tojikiston, Afg'oniston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston, Yaponiya, Isroil, Ukraina, Turkiya Respublikalari - 1 tadan, Eron Islom Respublikasi - 3 ta, Rossiya Federatsiyasi - 3 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 5 ta.

20 ta yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Navoiy (6 ta) va Zarafshon (3 ta) shaharlarida, Karmana (4 ta), Nurota, Navbahor, Konimex (1 ta), Xatirchi va Qiziltepa (2) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimidagi soni va ulushi

	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>
Jami	20	100,0
Navoiy sh.	6	30,0
Zarafshon sh.	3	15,0
G'ozg'on sh.	-	-
Konimex t.	1	5,0
Qiziltepa t.	2	10,0
Navbahor t.	1	5,0
Karmana t.	4	20,0
Nurota t.	1	5,0
Tomdi t.	-	-
Uchquduq t.	-	-
Xatirchi t.	2	10,0

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 13 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 4 ta, qurilish, savdo va boshqa tarmoqlarda 1 tadan.

2022-yil 1-yanvar holatiga 5 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar hisoblanib, shundan Navoiy shahri (2 ta), Qiziltepa, Zarafshon va Tomdi tumani (1 tadan) hissasiga to'g'ri keldi.

Oilaviy korxonalar. Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022-yil 1-yanvar holatiga 4 156 tani tashkil etib, ulardan 4 010 tasi yoki 96,5 foizi faoliyat yuritmoqda.

2022-yil 1-yanvar holatiga faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,2 foizga yoki 337 taga ko'paydi.

